SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA AKSIOLOGIK QARASHLARNING QIYOSIY-PEDAGOGIK TAHLILI VA ZAMONAVIY AKSIOLOGIK PARADIGMALAR

Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi (PhD)
tursunovad006@gmail.com

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Sharq (al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Konfutsiy, Avloniy) va G‘arb (Rickert, Scheler, Fromm, Rokeach, Kagan) falsafiy an'analarida qadriyatlar nazariyasi qiyosiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Ikkala an'ananing o‘xshash va farqli jihatlari aniqlashtirilgan; zamonaviy aksiologik paradigmalar — postmodern qadriyatlar pluralizmi, ta'limdagi qadriyat yondashuv va O‘zbekiston milliy konteksti — izchil muhokama qilingan. Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, Sharq va G‘arb aksiologik tizimlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyosiy matritsa orqali tahlil qilish birinchi marta O‘zbekiston ilmiy doirasida sintetik pedagogik xulosalar chiqarishga xizmat qilmoqda. Pedagogika yo‘nalishidagi tadqiqotchilar, tarix va falsafa o‘qituvchilari, shuningdek, ma'naviy-axloqiy ta'lim sohasidagi amaliyotchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: aksiologiya, qadriyatlar nazariyasi, Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi, pedagogik aksiologiya, ma'naviy ideallar, qadriyatli yondashuv, zamonaviy paradigma.

KIRISH.

Aksiologiya — qadriyatlar falsafasi — bugungi kunda nafaqat abstrakt nazariya sifatida, balki ta'lim tizimining metodik asosi sifatida ham o‘rganilmoqda. Garchi bu soha XIX asr oxirida alohida falsafiy intizom sifatida shakllanган bo‘lsa-da, qadriyatlar muammosi insoniyat tafakkuri tarixida azaldan markaziy o‘rinni egallagan. Bu yerda muhim savol tug‘iladi: Sharq va G‘arb aksiologik an'analari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi, va bu farq zamonaviy pedagogikaga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

Ushbu savolning ahamiyati shundaki, O‘zbekiston ta'lim tizimi ham G‘arb universal qadriyat mezonlarini, ham milliy Sharq ma'naviy merosini o‘zida mujassamlashtirish vazifasi oldida turibdi. Bu ikki an'anani shunchaki «parallel» yoki «qarama-qarshi» deb ko‘rish yetarli emas. Holbuki ular bir-birini to‘ldiradi, ammo ba'zan ziddiyatli yo‘nalishlarda. Aynan shu ziddiyat va uning pedagogik yechimi ushbu maqolaning bosh muammosi hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi: Sharq va G‘arb falsafiy an'analarida aksiologik qarashlarni qiyosiy tahlil etish hamda ushbu tahlil asosida zamonaviy pedagogik aksiologiyaning metodologik asoslarini aniqlash.

Ilmiy muammo: Mavjud tadqiqotlarda Sharq aksiologiyasi ko‘pincha G‘arb mezonlari asosida baholanadi — bu esa Sharq qadriyat tizimining o‘ziga xos ichki mantiqini ko‘rinmas qiladi. Qiyosiy pedagogik tahlil esa ikki an'ananing o‘z «tili»da o‘rganilishini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Tadqiqotda quyidagi usullar majmuasidan foydalanilgan: tarixiy-falsafiy tahlil (Sharq va G‘arb aksiologik tafakkur taraqqiyotini davrlar bo‘yicha o‘rganish); qiyosiy-tipologik tahlil (ikki an'anani belgilangan mezonlar asosida solishtirish); germenevtik yondashuv (asosiy matnlarni kontekstda talqin etish); hamda sintetik-pedagogik yondashuv (nazariy xulosalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mumkinligi nuqtai nazaridan baholash).

Tahlilning birlamchi manbalari sifatida al-Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», Rickertning «Bilish ob'yekti», Schelerning «Axloqdagi formalizm», Fromming «Ega bo‘lish yoki bo‘lish», Rokeachning «Inson qadriyatlarining tabiati», Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», shuningdek Konfutsiy, Aristotel va Kant asarlari asos qilib olindi. Ikkilamchi manba sifatida N.Ergashev, Q.Nazarov, B.Ergashev, M.S.Kagan va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ishlatildi.

Tatqiqot metodologiyasi. Mazkur tatqiqot qiyosiy matritsa uchun beshta asosiy mezon belgilandi: (1) qadriyatning ontologik tabiati, (2) qadriyatning bilish bilan munosabati, (3) axloqiy qadriyatlarning asosi, (4) jamiyat va shaxs munosabatida qadriyatning o‘rni, va (5) pedagogik tatbiq imkoniyatlari. Ushbu mezonlar an'anaga emas, balki muammoga yo‘naltirilgan bo‘lib, shu orqali ikki tizimni «teng»likda taqqoslash imkoni yaratiladi.

G‘arb falsafasida qadriyatlar muammosi birinchi marta sistemali tarzda H. Rickert tomonidan yoritildi. Uning fikricha, qadriyat — bu borliqqa emas, balki transtsendental ongga tegishli kategoriya: «Qadriyat ne'mat emas, ne'mat qadriyatga ega bo‘lgan narsadir.»1 Bu farq muhim — Rickert qadriyatni sub'ektiv his-tuyg‘udan ajratib, uni universal me'yor darajasiga ko‘taradi. Biroq, bu yondashuv ham kamchilikdan xoli emas: u qadriyatni hayotdan, konkret insoniy tajribadan uzib qo‘yish xavfini tug‘diradi.

M. Scheler Rickert pozitsiyasini rad etib, qadriyatni fenomenologik jihatdan tushuntirdi. Uning ta'kidlashicha, qadriyatlar «his qilinadigan» — ular ongda emas, tajribada ochiladi.2 Scheler qadriyatlarni ierarxiyaga soladi: eng quyi — hissiy, eng yuqori — muqaddas. Bu ierarxiya keyingi aksiologik tizimlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Aslida, Schelerning bu yondashuvi Sharq falsafasi bilan qiziqarli uyg‘unlik kasb etadi — Sharqda ham qadriyatlar «fikrlanmaydi», balki «yashab ko‘riladi».

M. Rokeachning empirik yondashuvi qadriyatlarni ikki guruhga ajratdi: terminal qadriyatlar (maqsad-qadriyatlar) va instrumental qadriyatlar (vosita-qadriyatlar).3 Bu tasnif pedagogika uchun amaliy jihatdan muhim: terminal qadriyatlar tarbiyaning yakuniy maqsadini belgilasa, instrumental qadriyatlar jarayon sifatini aniqlab beradi. Lekin Rokeach yondashuvining cheklovi ham bor — u qadriyatlarni ro‘yxat («inventory») shaklida ko‘rib, ularning bir-biriga bog‘liqligini yetarlicha ochib bermaydi.

E. Fromm aksariyat psixologik yondashuv vakili bo‘lsada, uning «Ega bo‘lish yoki bo‘lish» asari aksiologik muhokama uchun asosiy manbadir.4 Fromm zamonaviy Garbni «ega bo‘lish» (having) mazmuniga asoslanganlikda tanqid qiladi — holbuki haqiqiy qadriyat «bo‘lish» (being) orqali yuzaga chiqadi. Bu ziddiyat bugungi ta'lim tizimida ham ko‘rinadi: o‘quvchilar natijaga (baholarga, unvonlarga) yo‘naltirilgan, jarayonga emas. Sharq falsafasi esa, ko‘rib chiqiladiki, «bo‘lish» tomonga og‘adi.

M.S. Kagan qadriyatlarni ontologik jihatdan asoslashga urinib, ularni inson-olam munosabatining mahsuli deb ta'rifladi.5 Uning tizimida qadriyat sub'ektiv ham, ob'ektiv ham emas — u ikkalasi o‘rtasidagi munosabatda paydo bo‘ladi. Bu yondashuv pedagogik jihatdan samarali: o‘quvchi qadriyatni tayyor qolip sifatida qabul qilmaydi, balki o‘z tajribasida kashf etadi.

Al-Forobiy aksiologik tafakkurni kosmologiya va siyosiy falsafa bilan uzviy bog‘ladi. Uning «Fozil odamlar shahri» kontsepsiyasida ideal jamiyat — bu qadriyatlar ierarxiyasi to‘g‘ri qurilgan jamiyat.6 Al-Forobiy uchun eng oliy qadriyat — aql («al-aql»)

bilan uyg‘unlashgan baxt («sa'odat»). Biroq bu baxt individual emas — u jamoa ichida, boshqalar bilan hamkorlikda erishiladi. Bu jihat G‘arb liberal aksiologiyasidan tubdan farq qiladi: u yerda qadriyat ko‘pincha shaxs huquqlari tili bilan ifodalansa, Forobiyda u jamoa majburiyatlari tili bilan ko‘rinadi.

Ibn Sino aksiologiyasida epistemologiya va etika bir-biriga qo‘shiladi: bilish ham axloqiy harakat hisoblanadi.7 Uning nuqtai nazarida, haqiqatni bilish — bu qadriyat, va bu qadriyatga faqat ruhiy tozalanish orqali erishiladi. Shu tarzda Ibn Sino uchun pedagog vazifasi shunchaki ma'lumot berish emas — u o‘quvchining ruhiy kamolotiga yo‘naltirilgan. Bu g‘oya hozirgi «whole-person education» (butun shaxsni rivojlantirish) paradigmasi bilan hayratlanarli darajada mos tushadi.

Beruniy esa boshqa nuqtai nazarni taqdim etadi. U qadriyatlarni madaniy-nisbiy (culturally relative) tushunishga yaqin edi — turli xalqlarning urf-odatlarini hukm chiqarmasdan kuzatdi, ularning ichki mantiqini tushunishga harakat qildi.8 Bu yondashuv zamonaviy multikulturalizm va madaniyatlararo dialog nazariyasiga ishora qiladi. Pedagogik jihatdan qaraganda, Beruniy modeli o‘quvchilarga «boshqalar» qadriyatlarini hurmat bilan o‘rganishni o‘rgatish uchun hamon dolzarb.

Konfutsiy aksiologiyasida markaziy tushuncha — «ren» (insoniylik, mehr-muruvvat) va «li» (tartib, udum).15 Bu ikki tushuncha o‘zaro bog‘liq: ren — ichki qadriyat, li — uning tashqi ifodasi. Pedagogik tizim uchun bu muhim farq: o‘quvchida faqat tashqi xulq-atvor emas, balki ichki mo‘tadillik ham shakllantirilishi kerak. Konfutsiy maktablarida bu tamoyil bugun ham asosiy mezon sifatida saqlanib qolgan.

Abdulla Avloniy O‘zbekiston uchun aksiologik pedagogikaning asoschisi desak yanglishmaymiz. Uning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida qadriyatlar hayotiy, amaliy va milliy zaminli tarzda talqin etiladi.9 Avloniy uchun qadriyat «kitobda» emas, balki kundalik xulq-atvor va ijtimoiy munosabatda yashaydi. Bu yondashuv Schelerning fenomenologik tushunchasi bilan mos keladi, lekin u g‘arbiy abstraktsiyasiz, yerli tilida ifodalangan.

Jadid pedagogikasi umuman olganda aksiologik reformaning ifodasidir: ular qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqmasdan ta'lim tizimini o‘zgartirib bo‘lmaydi, degan xulosaga kelishgan. Bu g‘oya bugungi ta'lim islohotlari bilan qiziqarli muloqot o‘rnatadi. Ikki an'ananing o‘xshashliklari va farqlarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin. Jadval beshta mezon bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ikkala an'ana uchun asosiy vakil mualliflar pozitsiyasini aks ettiradi.

1-jadval. Sharq va G‘arb aksiologiyasining qiyosiy matritsasi

Mezon Ko‘rsatkich G‘arb aksiologiyasi (Rickert, Scheler, Fromm, Rokeach, Kagan) Sharq aksiologiyasi (Al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Avloniy, Konfutsiy)

1. Qadriyatning ontologik tabiati Asosi Transtsendental (Rickert) yoki fenomenologik (Scheler) — sub'ektiv va ob'ektiv o‘rtasida Kosmologik-etik birlik (Al-Forobiy); bilish-axloq uyg‘unligi (Ibn Sino); madaniy-nisbiy (Beruniy)

2. Qadriyat va bilish munosabati Yo‘nalishi Ko‘proq epistemologiyadan ajratilgan (Kant, Rickert); Kagan — munosabatda birlashtiradi Bilish o‘zi qadriyat (Ibn Sino); aql va ma'naviyat uyg‘unligi (Al-Forobiy)

3. Axloqiy qadriyat asosi	Manba	Universal aql (Kant), empirik o‘lchov (Rokeach), psixologik ehtiyoj (Fromm)	Ilohiy tartib, jamoaviy an'ana, ustoz-shogird silsilasi (Konfutsiy, Avloniy)
4. Shaxs va jamoa munosabati	Urg‘u	Shaxs huquqlari va erkinligi ustuvor (liberal an'ana); jamoaviy ham muhim (Kagan)	Jamoa manfaati ustuvor; shaxs kamoloti — jamoaviy munosabatlarda (Al-Forobiy, Konfutsiy)
5. Pedagogik tatbiq imkoniyati	Amaliyot	Qadriyatni tanqidiy tahlil orqali o‘rgatish; individual tanlov erkinligi (Rokeach, Fromm)	Namunaviy shaxs orqali o‘rgatish; yashash tarzi sifatida singdirish (Avloniy, Konfutsiy)
6. Zamonaviy ta'limga muvofiqligi	Nisbatan	Yuqori: tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi anglatish metodikasi bilan uyg‘un	Yuqori: ma'naviy tarbiya, milliy o‘zlik, vatanparvarlik ta'limi bilan uyg‘un

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikkala an'ana bir-birini inkor etmaydi — aksincha, ular turli pedagogik vazifalarni hal qilishda bir-birini to‘ldiradi. G‘arb aksiologiyasi shaxsning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga ko‘proq xizmat qilsa, Sharq aksiologiyasi milliy o‘zlikni, jamoa manfaatlarini va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishda kuchliroqdir.

Ayni vaqtda, ikkala an'ananing ham o‘z cheklovlari mavjud. G‘arb liberalizmi haddan ziyod individualizmga olib kelishi va qadriyatlarni sub’ektivlashtirishi mumkin — bu ta'limda “hamma narsa nisbiy” degan relativizmga yo‘l ochishi xavfini tug‘diradi. Sharq an'anasi esa ba’zan shaxsning o‘z tanlovini cheklab, konformizmni rag‘batlantirishi mumkin. O‘zbekiston uchun optimal yol — bu ikki an'ananing o‘zaro boyituvchi sintezi.

Postmodernizm qadriyatlar universal bo‘la olmasligini ta'kidlaydi: har bir madaniyat o‘z qadriyat tizimiga ega va bu tizimlar o‘rtasida ierarxiya mavjud emas. Bu tamoyil multikulturalizm pedagogikasining asosini tashkil etadi. Lekin bu yerda ziddiyat paydo bo‘ladi: agar barcha qadriyatlar tengma-teng bo‘lsa, unda ta'lim nima uchun biror qadriyatni afzal ko‘radi? Bu savolga postmodern nazariya qoniqarli javob bera olmaydi. Ta'lim tizimi uchun bu kamchilik amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Q. Nazarovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston milliy qadriyatlar tizimi universal va mahalliy qadriyatlarning sintezini talab qiladi — bu esa postmodern relativizmdan keskin farqlanadi.10 Binobarin, O‘zbekiston ta'lim falsafasi uchun postmodern yondashuv to‘liq qabul qilinmaydi, balki u nuqsonlaridan xabardor holda selektiv ravishda qo‘llaniladi.

Aksiologik yondashuv ta’limda — bu qadriyatlarni o‘quv jarayoniga mexanik tarzda kiritish emas. U o‘quvchining o‘z qadriyatini aniqlash, tanqidiy baholash va ongli qabul qilish jarayonini bildiradi. B.G. Xodjaevning tadqiqotlarida bu yondashuv O‘zbek pedagogikasiga tatbiq etilgan.18 Uning ta'kidlashicha, aksiologik yondashuv nafaqat mazmunga, balki jarayonning o‘ziga — o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatiga ham tatbiq etilishi zarur.

D. Tursunova “Pedagogik aksiologiya” darsligida bu yondashuvni tarix fanini o‘qitishda konkret amalga oshirish modelini taklif etadi.19 Uning modelida tarixiy shaxslar — Amir Temur, Alisher Navoiy, jadidlar — faqat ma'lumot sifatida emas, balki qadriyat namunaviy timsollar sifatida taqdim etiladi. Bu yondashuv ikkala an'ananing (Sharq va G‘arb) pedagogik imkoniyatlarini bir vaqtda faollashtiradi.

I.A.Karimovning ta'kidlashicha, ma'naviy yuksalish — bu iqtisodiy taraqqiyotdan ko‘ra chuqurroq jarayon bo‘lib, u millat o‘zligini anglashda ildiz otadi.11 Sh.M. Mirziyoyevning yangi O‘zbekiston strategiyasida esa bu g‘oya amaliy siyosatga aylandi: ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va zamonaviy universal kompetentsiyalar uyg‘unlashtirilmoqda.12 Bu ikki ulug‘ maqsadni bir vaqtda amalga oshirish — O‘zbekiston aksiologik pedagogikasining asosiy vazifasi.

Qodirovning tahlillariga ko‘ra, O‘zbek falsafiy merosi qadriyatlar masalasida o‘ziga xos paradigmatik sintezga erishgan — unda Sharq ma'naviy an'anasi, Islom etikasi va zamonaviy insonparvarlik g‘oyalari bir-biriga singib ketgan.20 Bu sintezni ta'lim tizimida saqlab qolish va yangi avlodga yetkazish — bu hozirgi O‘zbek pedagogikasining hal qiluvchi aksiologik vazifasi.

Taxlil va natijalar. Olib borilgan qiyosiy tahlil quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi. Birinchi natija: Sharq va G‘arb aksiologik tizimlarini “an’anaviy” va «zamonaviy» deb ajratish noto‘g‘ri. Ikkala an'ana ham hozirgi ta'lim muammolari uchun bevosita dolzarb bo‘lib qolmoqda — lekin har biri turli muammolarga javob beradi.

Ikkinchi natija: «Ega bo‘lish — bo‘lish» ziddiyati (Fromm) O‘zbekiston ta'lim tizimida ham sezilmoqda. Ko‘pgina o‘quvchilar bilimni maqsad sifatida emas, vosita (attestat, diplom) sifatida ko‘rmoqda. Bu holat Sharq an'anasining epistemologik qadriyat g‘oyasi — bilishning o‘zi muhim — degan pozitsiyasini yanada dolzarb qiladi. Ibn Sino va Al-Forobiy modeli bu muammoga amaliy yechim taklif etishi mumkin.

Uchinchi natija, va eng muhimi: qiyosiy matritsa tahlili shuni ko‘rsatdiki, Sharq aksiologiyasi G‘arbniki bilan ikkita muhim nuqtada kesishadi. Birinchisi — qadriyatning bilish bilan bog‘liqligi (Ibn Sino va Kagan). Ikkinchisi — qadriyatni faqat individual darajada emas, balki ijtimoiy munosabatlarda anglash (Al-Forobiy va Kagan). Bu kesishuv nuqtalari zamonaviy pedagogik aksiologiyaning universal metodologik asosini tashkil etishi mumkin.

To‘rtinchi natija tashxis tavsifiga ega: ta'lim tizimida qadriyatlarni faqat mazmun («nima o‘rgatiladi») nuqtai nazaridan emas, balki jarayon («qanday o‘rgatiladi») nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqish zarur. Avloniy va Konfutsiy an'anasida bu ikkinchi jihat asosiy edi — o‘qituvchining o‘zi namunaviy qadriyat tashuvchi bo‘lishi kerak. Bu g‘oya zamonaviy pedagogikaning «rollar modeli» (role model) kontsepsiyasi bilan uyg‘un.

Muhokama: Maqolaning cheklovi shundaki, Hindiston va Islom falsafasidagi qadriyatlar nazariyasi to‘liq qamrab olinmagan — bu kelajak tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish. Shuningdek, qiyosiy matritsa mezonlari tadqiqotchi tomonidan belgilangan bo‘lib, boshqa mezonlar bilan boshqacha natijalar chiqishi mumkin. Bu metodologik cheklov aniq ko‘rsatilishi lozim.

Xulosa. Sharq va G‘arb falsafiy an'analarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, aksiologiya universal insoniy muammo atrofida shakllanadi — lekin har bir madaniyat bu muammoga o‘z tilida, o‘z mantig‘ida yondashuv ishlab chiqgan. G‘arb aksiologiyasi asosan qadriyat ontologiyasi, epistemologiyasi va metodologiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratgan — bu ta'limdagi tanqidiy tafakkur va individual rivojlanish metodikasining asosini tashkil etadi. Sharq aksiologiyasi esa qadriyatni hayot tarzi, jamoa madaniyati va ma'naviy kamolot bilan uzviy bog‘lab, ta'limdagi ruhiy tarbiya va milliy o‘zlikni anglash uchun kuchli metodologik zamin yaratgan.

O‘zbekiston ta'lim tizimi uchun bu tahlil amaliy ahamiyat kasb etadi: birinchidan, ta'lim dasturlarida ikkala an'ana nuqtai nazaridan muvozanatli qadriyat-pedagogik asoslar ishlab chiqilishi zarur; ikkinchidan, o‘qituvchi tayyorlashda faqat bilim uzatuvchi emas, balki qadriyat namunasi bo‘la oladigan shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi lozim; uchinchidan, milliy meros (Avloniy, Al-Forobiy, Ibn Sino) va xalqaro tajriba (Scheler, Fromm, Rokeach) o‘rtasidagi muloqotni davom ettirish — bu O‘zbek pedagogik aksiologiyasining yetuklik mezoni bo‘lishi kerak.

Zamonaviy aksiologik paradigmalar — genitiv qadriyatlar pluralizmi, qadriyatli yondashuv, raqamli muhitda qadriyatlar krizisi — bu muammoaning yangi qirralarini ochmoqda. Ushbu qirralarni Sharq va G‘arb an'analarining birgalikdagi metodologik resurslarini jalb etgan holda tadqiq etish — kelajak ilmiy ishlar uchun istiqbolli yo‘nalish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rickert H. Der Gegenstand der Erkenntnis. — Tübingen: Mohr, 1904. — 316 S.
2. Scheler M. Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik. — Halle: Niemeyer, 1916. — 624 S.
3. Rokeach M. The Nature of Human Values. — New York: Free Press, 1973. — 438 p.
4. Fromm E. To Have or to Be? — New York: Harper & Row, 1976. — 226 p.
5. Kagan M.S. Filosofskaya teoriya tsennosti. — Sankt-Peterburg: Petropolis, 1997. — 205 s.
6. Al-Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. — 160 b.
7. Ibn Sino. Kitob ash-shifo. Falsafa qismi. — Toshkent: Fan, 1980. — 308 b.
8. Beruniy Abu Rayhon. Hindiston. — Toshkent: Fan, 1965. — 423 b.
9. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. — 94 b.
10. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. — Toshkent: Sharq, 2004. — 496 b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. — 454 b.
13. Aristotel. Nikomaxova etika. (tarj. A.Qodirov). — Toshkent: O‘zbekiston, 2015. — 288 b.
14. Kant I. Aqlning tanqidi. (tarj. N.Ergashev). — Toshkent: Fan, 2003. — 344 b.
15. Konfutsiy. Suhbatlar va mulohazalar (Lun-yuy). — Toshkent: Akademnashr, 2012. — 180 b.
16. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: ped. fan. dok. dis. — Toshkent, 1998. — 216 b.
17. Ergashev B.B. O‘zbek falsafiy merosida qadriyatlar muammosi. — Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2005. — 192 b.
18. Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. — 220 b.
19. Tursunova D.A. Pedagogik aksiologiya: darslik. — Farg‘ona: Classic nashriyoti, 2024. — 180 b.